

UDC: 34(045)(575.1)

## AHOLI VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Rahmatov Azizbek Iskandar o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi bosh maslahatchisi

ORCID: 0000-0001-8590-416

e-mail: rahmatov-azizbek95@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada an'anaviy tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari bilan bir qatorda elektron davlat xizmatlari tushunchasi, undan foydalanish tartibi va o'ziga xosliklari yoritilgan. Xususan, o'tgan ikki yil davomida yurtimizga kirib kelgan pandemiya masofadan turib ishlash, davlat organlari bilan elektron muloqotga kirishish va davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish qay darajada ahamiyat kasb etishini isbotladi. Maqolada, shuningdek, davlat xizmati va elektron davlat xizmati tushunchasi, so'nggi besh yilda davlat xizmati sohasida yaratilgan qonunchilik bazasi, ushbu sohada olib borilgan ishlar yoritib berilgan. Elektron davlat xizmatlari fuqarolarning vaqti va mablag'ini tejab qolmasdan, ortiqcha ovoragarchiliklar, davlat organi bilan bevosita aloqaga kirishishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli byurokratik to'siqlar va korrupsion holatlarning oldini oladi. Shu qatorda bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar qatorida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar, amaliyotdagi muammolar haqida ham so'z yuritilgan. Shunga ko'ra, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish, uni keng omalashtirish, davlat organlari o'rtasida o'zaro elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish, qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni raqamlashtirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga qisqa muddatda xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron hukumat, davlat xizmati, elektron davlat xizmati, "yagona darcha" prinsipi, integratsiya, raqamlashtirish.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОКАЗАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ НАСЕЛЕНИЮ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯМ

**Рахматов Азизбек Искандар угли,**

независимый соискатель

Ташкентского государственного юридического университета,

Главный консультант Министерства юстиции

Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются понятия электронных государственных услуг и традиционных государственных услуг, а также порядок и особенности их использования. В частности, за последние два года проникшая в нашу страну пандемия доказала важность удаленной работы, электронного общения с государственными органами и электронного использования госуслуг. Также в статье описывается понятие государственной услуги и электронной государственной услуги, анализируются законодательная база, созданная в сфере государственных услуг за последние 5 лет и работа, проделанная в этой сфере. Надо признать, что система электронных государственных услуг не только экономит время и деньги граждан,

но и предотвращает лишние хлопоты, различные бюрократические препятствия и коррупцию, которые могут возникнуть при прямом контакте с государственным органом. Кроме того, в качестве результатов обсуждены предстоящая работа и проблемы, возникающие на практике сегодня. В связи с этим разработаны предложения по развитию электронных государственных услуг, их широкому распространению, налаживанию взаимного электронного документооборота между государственными органами, налаживанию системы быстрого обслуживания населения и бизнеса посредством оцифровки бумажных документов.

**Ключевые слова:** электронное правительство, государственная услуга, электронная государственная услуга, принцип «единого окна», интеграция, оцифровка.

## IMPROVING THE SYSTEM OF ELECTRONIC GOVERNMENT SERVICES FOR THE POPULATION AND ENTREPRENEURS

**Rakhmatov Azizbek Iskandar ugli,**  
Independent Researcher at  
Tashkent State University of Law,  
The general counsel of the Ministry of  
Justice of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** This article describes the concept of e-government services and traditional public services, as well as the procedure and features of their use. In particular, over the past two years, the pandemic that has entered our country has proved the importance of remote work, electronic communication with government agencies, and the electronic use of public services. The article also describes the concept of public service and e-government service, the legislative framework created in the field of public service over the past 5 years and the work done in this area. We have to admit that e-government services not only save the time and money of citizens but also prevent unnecessary hassle, various bureaucratic obstacles and corruption that can arise in direct contact with a government agency. In addition, among the achievements to date, the work to be done and the problems in practice were also discussed. Accordingly, proposals have been developed for the progress of e-government services, its widespread dissemination, the establishment of mutual electronic document exchange between government agencies, and the establishment of a system of short-term services to the population and businesses through the digitization of paper documents.

**Keywords:** e-government, government service, e-government service, "single window" principle, integration, digitization.

### Kirish

Davlat boshqaruvida yangicha tub buri-lish hosil qilish, davlat organlarining fuqarolarga xizmat qilishdek oliy maqsadni ro'yobga chiqarish, fuqarolarning og'irini yengil, muammosini hal qilish, ularga qisqa muddatda xizmatlar ko'rsatish va bu orqali aholi farovonligini oshirish bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida yotadi. Zero, bugungi kunda butun dunyo hamjamiyati tomonidan aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasini rivojlantirish, xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga alo-

hida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Koreya, Gruziya, AQSh, Germaniya, Angliya, Estoniya, Singapur, Qozog'iston, Ozarbayjon, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda elektron davlat xizmatlari ko'rsatish sohasi keng joriy qilingan.

Yurtimizda ham so'nggi besh yil davomida elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish va ommalashtirish borasida o'ziga xos sinov davri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu davr mobaynida elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini nazarda tutuvchi ko'pgina normativ-huquqiy hujjatlar

qabul qilindi; Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yangi turdagi xizmatlar joriy etildi; aksariyat davlat organlarining axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinib, elektron xizmatlardan foydalanish uchun fuqarolarga bir qancha imtiyozlar belgilandi.

Biroq olib borilayotgan ishlarni yetarli deb bo'lmaydi. Bu borada o'z yechimini kuttayotgan bir qancha masalalar mavjud. Xususan, aholini elektron xizmatlar bilan qamrab olish darajasining pastligi, fuqarolarda davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish ko'nikmasining yetarli emasligi, davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlarining uzunligi, aksariyat davlat organlarining zarur ma'lumotlari to'liq raqamlashtirilmaganligi ushbu yo'nalishda oldimizda turgan vazifalarning dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Material va metodlar**

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatini takomillashtirish hamda rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmini yoritish tadqiqotning asosiy mazmunini tashkil etadi. Buning uchun dastlab elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tushunchasiga ta'rif berish, mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tartibga solish sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish sohasiga doir qonun hujjatlari ni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot davomida tahlil, sintez hamda taqqoslash kabi ilmiy bilishning texnika va usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Bundan to'rt yil muqaddam davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan tashkil etilgan Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini yo'lga qo'yishdan asosiy maqsad aholiga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish, elektron davlat xizmatlarini ommalashtirishdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-son Farmoniga asosan, butunlay yangi tuzilma – Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tashkil etilib, tadbirkorlik subyektlariga "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari Davlat xizmatlari markazlari etib qayta tashkil qilindi. Endilikda "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish imkoniyatidan nafaqat tadbirkorlik subyektlari, balki fuqarolar ham foydalanib kelmoqda.

Mazkur tizimning yaratilishi davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida ortiqcha vaqt va mablag' sarflanishi, sansalorliklar, fuqarolarning u yoki bu davlat tashkilotida uzoq navbatlar kutib turishlari, mahalliychilik hamda tanish-bilishchilik kabi jamiyat rivojiga to'siq bo'luvchi omillarga jiddiy zarba bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, R.V. Adjubey ta'kidlaganidek, "davlat xizmatini taqdim etish jarayoni, odatda, turli xil ma'lumotlar, ko'chirmalar, sertifikatlar to'plash va ular asosida xizmatni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'plamini shakllantirish bilan birga keladi. Ba'zan bunday hujjatlarni to'plash uchun ariza beruvchiga haftalar yoki hatto oylar ketishi mumkin. Xizmat ko'rsatishning tezkorligi va ochiqqligini ta'minlash uchun ma'muriy to'siqlarni yengib o'tish maqsadida kommunal xizmatlarni "yagona oyna" asosida olish imkoniyatini ta'minlash kerak" [1].

Farmonga asosan, jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishni tashkil qilish Agentlikning asosiy

vazifalari etib belgilandi. Mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, bugungi kunga qadar Agentlik tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirildi, deb aytishimiz mumkin. Xususan, birgina 2021-yilning o'zida Davlat xizmatlari markazlari orqali qo'shimcha 18 turdagi xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilib, ularning soni 170 dan oshirildi. Markazlar hamda FHDYO organlari orqali aholiga 11 mln dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatildi.

Shuningdek, davlat xizmatlaridan eksteritoriallik tamoyili asosida foydalanish tartibi joriy qilindi, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari va fuqarolardan so'rab kelinayotgan 34 turdagi hujjatlar va ma'lumotnomalarni talab qilish bekor qilindi [2].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari nafaqat Markazlar, balki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda – Yagona portal) orqali ham ko'rsatib kelinmoqda. Xususan, Davlat xizmatlari yagona reestrda (ro'yxat raqami 3021, 2018-yil 1-iyun) keltirib o'tilgan jami 716 turdagi davlat xizmatlarining 400 ga yaqini an'anaviy usulda vakolatli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rsatilsa, qolgan turlari elektron shaklda Markazlar yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirib kelinmoqda.

Xo'sh, davlat xizmati nima? Elektron davlat xizmati qanday ko'rsatiladi? Uning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga asosan, davlat xizmati ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra, amalga oshiriladigan va davlat organlari vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat.

"Davlat xizmati" tushunchasi davlat hokimiyati organlari faoliyati (shuningdek, davlat xizmatchilari) bilan fuqarolar va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. Shuningdek, aholining talablaridan kelib

chiqqan holda, davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmat turlari nazarda tutiladi. Davlat xizmatlarini davlat tomonidan tegishli vakolatlar berilgan boshqa tashkilotlar ham qonun doirasida amalga oshirishlari ko'zda tutilgan. Davlat xizmatining asosida har doim ommaviy manfaatlar yotadi. Ushbu xizmatlardan foydalanuvchilarning soni esa cheksizdir [3].

Elektron davlat xizmati esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda, ko'rsatiladigan davlat xizmati hisoblanadi. Ya'ni tadbirkorlik subyektlarining ma'lum bir ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatni olish uchun bevosita davlat organiga borib murojaat qilishi va tegishli davlat organi tomonidan hujjatni berish jarayonlari davlat xizmati hisoblansa, davlat organiga bormasdan rasmiy sayt, mobil ilovalar yoki maxsus ishlab chiqilgan dasturlar vositasida elektron murojaat qilishi elektron davlat xizmati ko'rsatish instrumentlaridir.

Elektron davlat xizmati elektron hukumatning ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir.

Bugungi kunda raqamlashtirish, sun'y intellekt va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda elektron davlat xizmatlariga bo'lgan talab, davlat organlari va fuqarolar o'rtasida masofaviy munosabatlarni rivojlantirish, qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarni qisqartirish, vaqt va mablag' sarfini minimallashtirishga bo'lgan intilish ham oshib bormoqda.

Davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish orqali fuqarolar hayotini yaxshilash uchun intellektual va ijodiy faoliyatning yangi mexanizmlarini yaratish, ilg'or xorijiy tajribalarni aniqlash, davlat xizmatlari ko'rsatishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini doimiy ravishda nazorat qilish zarur [4].

So'nggi ikki yilda pandemiya davrida masofadan ishlash bilan birga elektron davlat xizmatlariga bo'lgan talab ham oshganligi bejiz emas. Zero, masofadan turib davlat xiz-



matlaridan foydalanish fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining vaqti va mablag'ini tejab qolmasdan, ortiqcha hujjatlarni talab qilish yoki mas'ul shaxslar tomonidan turli talablar qo'yish bilan bog'liq qonun buzilishi holatlarining ham oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda fuqarolarimiz uchun elektron hukumat identifikatsiya tizimidan o'tgan holda, Yagona portalda ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) 300 ga yaqin turli interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yo'lga qo'yilgan va bosqichma-bosqich ularning soni oshirib borilmoqda. Onlayn xizmatlar sonining ortishi esa ushbu xizmatlardan yanada kengroq foydalanish va o'z navbatida, elektron hukumat tizimi rivojlanishiga xizmat qiladi.

Elektron xizmatlardan foydalanishning o'ziga xosligi shundan iboratki, fuqarolar va tadbirkorlar xizmatlardan 24 soat davomida, haftaning istalgan kuni davlat organlari va tashkilotlarga bormasdan masofadan turib foydalanishlari mumkin.

Bunday turdagi xizmatlar aholiga elektron hukumat doirasida davlat organlari bilan munosabatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi, davlat boshqaruvi tizimiga "yagona darcha" tamoyilini joriy etib, davlat xizmatlari ko'rsatishning shaffof va hamma uchun ochiq mexanizmlarini yaratish, ularni ko'rsatish muddatlarini qisqartirish hamda ularni ko'rsatish tartibining bajarilishi ustidan markazlashgan nazoratni amalga oshirish orqali ularning sifatini oshirishni ta'minlaydi [5].

Ushbu afzalliklarni inobatga olgan holda, aholi orasida elektron xizmatlardan foydalanishni keng miqyosda joriy etish, ularning elektron xizmatlardan foydalanishini rag'batlantirish maqsadida qonunchilik hujjatlarida turli xil imtiyozlar berilishi, bu orqali davlat xizmatlarining har bir mahalla, har bir oilaga birma-bir kirib borishini ta'minlash bo'yicha bir qancha ishlar olib borildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-fevraldagi "Davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini yanada

kompleks rivojlantirish haqida"gi PQ-4193-son Qarori bilan 2019-yil 1-iyundan boshlab davlat xizmatlari olish uchun Yagona portal orqali murojaat etganda, davlat boji, yig'imlar va boshqa to'lovlar Markazlar orqali yoki bevosita xizmat ko'rsatuvchi organlarga murojaat etganda to'lanadigan summadan 90 foiz miqdorda to'lanishi belgilandi. Misol uchun, ma'lum bir turdagi litsenziya olish uchun bevosita vakolatli organga murojaat qilganda, 1 mln so'm miqdorida davlat boji undirilsa, Yagona portal orqali ariza yuborilganda undiriladigan boj miqdori 900 ming so'mni tashkil etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi "Davlat xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6269-son Farmoniga asosan, 2021-yil 1-noyabrdan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga Markazlar va (yoki) Yagona portal orqali davlat xizmatlari ko'rsatishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlar bo'yicha 50 foiz miqdorda chegirma qo'llaniladi.

Shu kabi yaratilayotgan imtiyozlar to'g'risida aholini xabardor qilish, hududlarda davlat xizmatlaridan elektron ko'rinishda foydalanish bo'yicha aholi ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Qarshi shahar tajribasi", "Buxoro tajribasi" asosida mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari, shuningdek, ta'lim muassasalarining xodimlari, ularda tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar uchun "Markaz-mahalla-fuqaro" tamoyili asosida darslar va turli xil ko'rgazmali targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan.

Tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlarida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish burchaklari tashkil etilgan bo'lib, u yerda fuqarolar o'zlari mustaqil ravishda davlat xizmatlaridan foydalanish uchun Markaz xodimlari ko'magida elektron arizalar yubo-

rishlari mumkin. Biroq olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramasdan, bir qancha omillar elektron davlat xizmatlarining keng ommalashib ketishiga to'siq bo'lib kelmoqda.

Birinchidan, davlat organlarida ayrim turdagi ma'lumotlar bugunga qadar to'liq raqamlashtirilmaganligi sababli qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni berish amaliyoti bugunga qadar saqlanib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tashkilotlar o'rtasida integratsiyalashgan tizim orqali o'zaro so'rov yuborish, kerakli hujjatlarni fuqarolarni ovora qilmasdan elektron ko'rinishda olish imkonini bermaydi.

"Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan, "bir darcha" prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish elektron hukumatning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Mazkur Qonunning 8-moddasiga ko'ra, elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organi bunday xizmat ko'rsatish uchun boshqa davlat organlarida mavjud bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni olishi talab etiladigan hollarda elektron davlat xizmati ko'rsatish "bir darcha" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, bunda elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organi mazkur hujjatlar va ma'lumotlarni mustaqil ravishda, ariza beruvchining ishtirokisiz idoralararo elektron hamkorlik qilish vositasida oladi. Biroq amaliyotda ko'pgina davlat xizmatini ko'rsatuvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ushbu prinsiplarga amal qilinmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi PF-6191-son Farmoni bilan pasport nusxasi, fotosurat, sudlanganlik, manzil-ma'lumot axboroti kabi 18 turdagi, 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son Farmon bilan 15 turdagi ma'lumot va hujjatlarni fuqarolardan talab qilmaslik, bevosita mas'ul davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integra-

tsiyalashuv platformasi orqali so'rab olish belgilangan bo'lishiga qaramasdan, aksariyat tashkilotlarda fuqarolardan talab qilish amaliyoti davom etmoqda. Chunki tashkilotlar uchun axborot tizimini yaratib, tashkilotga so'rov yuborib o'tirgandan ko'ra, fuqarodan so'rab olish nisbatan kam mehnat va vaqt talab qiladi. Shu sababli bu borada aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyatini oshirmas ekanmiz, bu sohada olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini berishi qiyin.

Ikkinchidan, aksariyat davlat organlari va tashkilotlarida axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazalarining mavjud emasligi, buning natijasida axborot resurslarining idoralararo integratsiya qilinish darajasi past ekanligi elektron hukumatning to'laqonli ishlashiga eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish uchun fuqarolarni identifikatsiya qilish tizimining murakkabligi, yaratilgan mobil ilova imkoniyatlarining cheklanganligi ham axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lmagan aksariyat yoshi katta insonlarga qiyinchilik tug'dirib, elektron xizmatlarning ommalashishiga monelik qilib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-yanvardagi "Davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5930-son Farmonida 2020-yil 1-mayga qadar talab eng yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan mobil ilovaning to'liq shaklini joriy etish va keyinchalik tizimli asosda takomillashtirib borilishini ta'minlash vazifasi belgilangan bo'lsa-da, bugunga qadar bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmadi.

Ma'lumot tariqasida aytish joizki, 2021-yilda ko'rsatilgan jami davlat xizmatlarining atigi 11 foizi elektron (onlayn) shaklda ko'rsatilgan. Taqqoslash uchun ushbu ko'rsatkich Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon kabi davlatlarda bugungi kunda 50 foizdan ortiqni tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu sohani rivojlantirishning bot-bot takrorlanishi ham bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2020-yil yanvar oyida bo'lib o'tgan yig'ilishda ham Prezidentimiz tomonidan, avvalo, "yagona darcha" tamoyili to'liq ishlashi uchun barcha davlat xizmatlari to'liq elektron shaklga o'tkazilishi va ma'lumotlar raqamlashtirilishi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini yil yakunigacha kamida 5 baravarga oshirish, 2025-yilgacha to'liq elektron xizmat ko'rsatishga o'tish maqsad qilib qo'yildi. Aholining 75 foizi internetga mobil qurilmalar orqali kirayotganini inobatga olib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining mobil versiyasini ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan biri ham aynan "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hisoblanadi.

Xususan, ushbu maqsadga erishish uchun davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko'rsatishni kengaytirish, davlat xizmatlari ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy etish, davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish, "Raqamli idora" loyihasi doirasida davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish asosiy vazifalar etib belgilangan.

Davlat organlari tomonidan Qonun bilan belgilangan vakolatlar amalda bajarilsa, xususan, elektron davlat xizmatlarining joriy etilishi, rivojlantirilishi hamda integratsiyalashuvi ta'minlansa, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsa, o'ylaymizki, aholida ham elektron xizmatlardan foydalanishga bo'lgan qiziqish ortadi, bu esa davlat byudjetidan millionlab mablag'lar iqtisod qilinishini anglatadi.

## Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- birinchidan, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish targ'iboti, avvalambor, yosh avlodga qaratilgan bo'lishi, elektron davlat xizmatining afzalliklari, undan foydalanish tartibi va o'ziga xos xususiyatlari, buning natijasida erishish mumkin bo'lgan natijalar bo'yicha fikrlarni shakllantirishdan boshlanishi lozim;

- ikkinchidan, aholining elektron xizmatlardan foydalanish madaniyatini yuksaltirish bo'yicha rejali targ'ibot ishlarini olib borish, xizmatlardan foydalanish bo'yicha tartib va qoidalarni o'zida jamlagan hujjatlar to'plamlarini ishlab chiqish;

- uchinchidan, davlat xizmatlari sohasida qabul qilinayotgan hujjatlarning mazmun-mohiyatini keng yoritish bo'yicha tahliiliy ma'lumotlar, infografikalar, audio- va videoroliklar, ijtimoiy reklamalar tayyorlash va tarqatish ishlarini yanada rivojlantirish;

- to'rtinchidan, barcha davlat organlari tomonidan davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonida fuqarolardan talab qilinadigan hujjatlarni bosqichma-bosqich bekor qilish va elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish bo'yicha dastur ishlab chiqish, unda hujjatlarni raqamlashtirish va axborot tizimlarini yaratish uchun mablag' ajratilishini nazarda tutish;

- beshinchidan, identifikatsiya qilishning yengil vositalarini amaliyotga joriy etish va mobil ilovalar imkoniyatlarini oshirish lozim.

Aholi farovonligini oshirish, ularga zamon talablariga mos bo'lgan qulayliklar yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat organlarining fuqarolarga xizmat ko'rsatishini amalda ta'minlashda ularga ko'rsatib kelinayotgan davlat xizmatlarining sifati katta ahamiyatga ega. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda qulay imkoniyatlar yaratish orqali aholining davlatga bo'lgan ishonchi oshishi, byurokratik to'siqlar va korrupsion holatlarning oldi olinishi, bu orqali esa davlatning iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi.

## REFERENCES

1. Adjubey R.B. Otsenka effektivnosti predostavleniya gosudarstvennih i munitsipalnih uslug naseleniyu [Evaluation of the effectiveness of the provision of state and municipal services to the population]. *Molodoy uchyoniy – Young scientist*, 2017, pp. 135-140.
2. Davlat xizmatlari agentligi tizimida 2021-yil 1-yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar haqida tahliliy ma'lumot [Analytical information on the work done in the system of the Agency for Public Services for the 1st half of 2021]. Available at: <https://davxizmat.uz/uz/reports/davlat-hizmatlari-agentligi-tizimida-2021-jil-1-jarim-jilligi-davomida-amalga-oshirilgan-ishlar-aida-talilij-malumat/>.
3. Kaliyeva A.U. Povyshenie kachestva zakonodatelstva posredstvom aktualizatsii klassifikatora otrasley zakonodatelstva Respubliki Kazakhstan [Improving the quality of legislation by updating the classifier of branches of legislation of the Republic of Kazakhstan]. *Vestnik Instituta zakonodatelstva Respubliki Kazakhstan – Bulletin of the Institute of Legislation of the Republic of Kazakhstan*, 2010, no. 3 (19). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-kachestva-zakonodatelstva-posredstvom-aktualizatsii-klassifikatora-otrasley-zakonodatelstva-respubliki-kazakhstan/>.
4. Jidkova O.S. Razvitiye sistemi okazaniya elektronnykh gosudarstvennykh uslug naseleniyu: na primere Kurganskoy oblasti [Development of a system for the provision of electronic public services to the population: on the example of the Kurgan region]. Abstract PhD thesis, 2013, pp. 5-6.
5. Osobennosti okazaniya predprinimatel'nykh elektronnykh uslug [Features of the provision of electronic services to entrepreneurs]. Available at: [https://www.minjust.uz/ru/library/own\\_publications/71320/](https://www.minjust.uz/ru/library/own_publications/71320/).
6. Bezshastnova L.B. Administrativno-pravovoye regulirovaniye gosudarstvennykh uslug [Administrative and legal regulation of public services]. Moscow, 2008, pp. 122-133.
7. Danilova S.N. Upravleniye sbalansirovannim razvitiyem mnogofunktsionalnykh tsentrov predostavleniya gosudarstvennykh i munitsipalnykh uslug [Management of the balanced development of multifunctional centers for the provision of state and municipal services]. Voronezh, 2019, 85 p.
8. Agneva V.V. Zarubezhnaya praktika okazaniya gosudarstvennykh uslug: printsipi i prioritety [Foreign practice of providing public services: principles and priorities]. *Srednerusskiy vestnik obshestvennykh nauk – Central-russian Bulletin of Social Sciences*, 2010, no. 4, pp. 141-143.
9. Tkachenko A.N., Nazarevskaya N.A. Predostavleniye gosudarstvennykh uslug [Provision of public services]. *Molodoy uchyoniy – Young Scientist*, 2017, no. 36, pp. 72-76.
10. Sadler J. Povysheniye kachestva gosudarstvennykh uslug [Improving the quality of public services]. *Problemi teorii i praktiki upravleniya – Problems of Theory and Practice of Management*, 2000, no 3, pp. 56-61.
11. Navikova I.D. Pravovaya reglamentatsiya deyatel'nosti organov vlasti po predostavleniyu gosudarstvennykh uslug v SSHA i Rossii [Legal regulation of the activities of authorities in the provision of public services in the United States and Russia]. *Vestnik Rossiyskogo universiteta druzhbi narodov – Bulletin of the Russian University of Friendship of Nations*, 2019, no. 2, pp. 289-304.
12. Starshenko S.P. Kompetentsiya federalnykh organov ispolnitel'noy vlasti v sfere predostavleniya publichnykh informatsionnykh uslug [Competence of federal executive bodies in the field of providing public information services]. 2010, p. 78.
13. Dushakova L.A. Nekotoriye aspekty pravovogo regulirovaniya gosudarstvennykh uslug [Some aspects of legal regulation of public services]. *Vestnik Permskogo universiteta – Perm University Bulletin*, 2011, no. 2, p. 106.
14. Januzakova L.T. Osobennosti pravovoy prirodi gosudarstvennykh uslug v sisteme gosudarstvennykh funktsiy [Features of the legal nature of public services in the system of public functions]. *Vestnik Instituta zakonodatelstva Respubliki Kazakhstan – Bulletin of the Institute of Legislation of the Republic of Kazakhstan*, 2011, no. 1 (21).
15. Kuldibayeva I.U. Pravovoye regulirovaniye predostavleniya elektronnykh gosudarstvennykh uslug [Legal regulation of the provision of electronic public services]. PhD thesis. Chelyabinsk, 2014, 240 p.



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.